Davlat statistika qo‘mitasi va hududiy statistika organlarida korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizomiga 1-ilova

# Tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining faoliyat ko‘rsatishi to‘g‘risida hisobot

| | |
|---|---|
| **Tashkilot nomi:** | Samarqand viloyati statistika boshqarmasi |
| **Hisobotni tayyorlagan xodim (Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ma’sullar):** | Statistik registrlarni yuritish bo‘limi bosh mutaxassisi - Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun ma’sul - Xolmuminov Xusniddin Nuritdinovich |
| **Hisobot davri:** | 2022- yil yanvar-iyun |
| **Hisobot tayyorlangan sana:** | 2022- yil 15- iyul |

| T/r | Tadbirlar guruhining nomlari | Tadbirlarning nomlari | Bajarish muddati | Ma’sul ijrochilar | Ijro to‘g‘risida belgi | Ijro etilmagan bo‘lsa, ijro etilishi kutilayotgan muddat | Bajarilganlikni tasdiqlash, bajarilmagan bo‘lsa sabablari |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1 | Jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish | Tizim xodimlari ishtirokida seminar yig‘ilishi va davra suhbatlarini muntazam ravishda o‘tkazish. | Har oy va choakda doimiy | X.Xolmuminov | Seminar yig‘ilishlari va davra suhbati o‘tkazildi. | | 2022- yil 6- aprel, 2022- yil 15- aprel, 2022- yil 18- aprel, 2022- yil 28- aprel, 2022- yil 10- may, 2022- yil 12- may, 2022- yil 25- may, 2022- yil 27- may, 2022- yil 17- iyun, 2022- yil 20- iyun, 2022- yil 24- iyun kunlari Samarqand viloyati statistika boshqarmasida davra suhbati va seminar yig‘ilishlar o‘tkazildi. |
| 2 | | Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyatini tushuntirishga, korrupsiyaga qarshi kurashish va uni oldini olishga qaratilgan ko‘rgazmali va tarqatma materiallar (plakatlar, bannerlar, bukletlar va boshqalar)ni tayyorlash va tarqatish. | Doimiy, har oyda bir marta seminar va ikki martadan ochiq eshiklar kunlarida | Z.Davronov, X.Xolmuminov, tumanlar va shahar statistika bo‘limlari | Boshqarma hamda tumanlar va shahar statistika bo‘limlarida har oyda bir marta seminar va ikki marta ochiq eshiklar kunlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyati tushuntirib borilmoqda. | | Boshqarma hamda tumanlar va shahar statistika bo‘limlarida o‘tkazilgan yig‘ilish bayonlari rasmiylashtirilib borilmoqda. |
| 3 | | Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida | Tadbir o‘tkazilgan kuni | X.Xolmuminov, tumanlar va shahar statistika | Boshqarma hamda tumanlar va shahar statistika | | O‘tkazilgan tadbirlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar |

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | amalga oshirilayotgan ishlar va ularning natijalari bo‘yicha ommaviy axborot vositalari va internet tarmog‘ida keng axborot-targ‘ibot ishlarini olib borish. | | bo‘limlari | bo‘limlarida Korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan o‘tkazilgan tadbirlar boshqarmaning rasmiy veb-saytida hamda ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilib borilmoqda | | boshqarmaning rasmiy veb-saytiga hamda ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirib borilmoqda. |
| 4 | | Viloyat statistika boshqarmasi va hududiy bo‘limlardagi bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portaliga (https://vacancy.argos.uz/) doimiy ravishda kiritib borish. | Doimiy | Kadrlar bo‘limi | Bo‘sh ish o‘rinlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona ochiq portaliga (https://vacancy.argos.uz/) doimiy ravishda kiritilib borilmoqda. | | Vakant lavozimlar yagona ochiq portaliga (https://vacancy.argos.uz/) kiritilgan. |

| T/r | Tadbir | Natijalar |
|---|---|---|
| | **II. Siyosatlar va protseduralar** | |
| 1. | Ichki hujjatlarni moslashtirish | Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida 2022- yilda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha idoraviy kompleks chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan. Ushbu chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar o‘z vaqtida bajarilmoqda. |
| 2. | Xavf-xatarli vazifa va tartib-taomillar kesimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga oid yangi korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar va choralar hamda korrupsiyaga qarshi masalalarni tartibga soluvchi ichki hujjatlarni ishlab chiqish. | Hisobot davrida tayyorlangan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha hamda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni kamaytirishga oid targ‘ibot ishlari doimiy ravishda o‘tkazilib kelinmoqda. |
| | **II. Shaxsiy namuna** | |
| 3. | Tashkilot rahbari va uning o‘rinbosarlarining ichki tadbirlardagi chiqishlari (nutqi). | Barcha xodimlar tomonidan statistika hisobotlarini qabul qilish va qayta ishlash jarayonida hisobot taqdim etuvchi xo‘jalik yurituvchi subyektlarni ovoro qilish, ularni asossiz Davlat statistika idoralariga taklif qilish, asossiz to‘lovlar undirish, o‘zaro munosabatlarda sansalorlik, ta’magirlik, poraxo‘rlik va boshqa ko‘rinishdagi korrupsiya holatlarga qat’iy chek qo‘yish. |
| | **III. Xavf-xatarlarni baholash** | |
| 4. | Tashkilotda korrupsiyaviy xavf-xatarlar bo‘yicha har yillik baholash o‘tkazish. | Yo‘q o‘tkazilmagan. |
| 5. | Hisobot davri uchun Tashkilotda ish jarayonda yangi aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va ularning darajalari (yuqori, o‘rta, past). | Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlar bo‘yicha muntazam ravishda targ‘ibot ishlari o‘tkazilib kelinganligi sababli korrupsiyaviy holatlar aniqlanmadi. |
| 6. | Hisobot davrida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni tartibga solish bo‘yicha amalga oshirilgan tadbirlar. | Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlar bo‘yicha muntazam ravishda targ‘ibot ishlari o‘tkazilib kelinganligi sababli korrupsiyaga oid holatlar aniqlanmadi. |
| 7. | Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni. | Yo‘q |
| 8. | Qoldiq korrupsiyaviy xavf-xatar o‘rta va undan past darajagacha kamaytirilgan aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlar soni. | Yo‘q |

| | | |
|---|---|---|
| **IV. Korrupsiyaga qarshi amalga oshiriladigan tartib-taomillar** | | |
| 9. | Tashkilotda aniqlangan manfaatlar to‘qnashuvi holatlari va qabul qilingan choralar. | Shaxsiy manfaatlar (to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita) shaxsning rasmiy yoki xizmat vazifalarini lozim darajada bajarishiga ta’sir qiladigan yoki ta’sir qilishi mumkin bo‘lgan va shaxsiy manfaatlar va fuqarolar, tashkilotlar, jamiyat yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o‘rtasida ziddiyat kelib chiqadigan yoki yuzaga keladigan vaziyatlarga duch kelmaslik uchun amalga oshirilgan ishlar sababli Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizimida manfaatlar to‘qnashuvi bilan bog‘liq holatlar aniqlanmagan. |
| 10. | Xodimlar tomonidan har yili manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilish. | |
| 11. | Ishga olingan xodimlar va nomzodlar ustidan o‘tkazilgan tekshiruvlar soni. | Yo‘q |
| 12. | Hisobot davrida o‘tkazilgan kontragentlar tekshiruvlari soni | Yo‘q |
| 13. | Amalga oshiriladigan boshqa korrupsiyaga qarshi tartib-taomillar. | Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tomonidan muntazam ravishda “Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz”, “Faqatgina birga korrupsiyani to‘xtata olamiz”, “Unutmang, Korrupsiyadan har birimiz jabr ko‘ramiz”, “Korrupsiyaga to‘qnashdingmi qo‘ng‘iroq qil”, “Korrupsiyaga duch kelsangiz xabar bering”, “Korrupsiyadan ogoh bo‘ling”, “Korrupsiya taraqqiyot kushandasi”, “Korrupsiya adolat kushandasi”, “Men korrupsiyaga qarshiman”, “Korrupsiya mamlakat taraqqiyotiga to‘siq” va “Korrupsiyaga qarshi kurash, hammamizning burchimiz” turkumida va boshqa ko‘plab mavzularda targ‘ibot ishlari o‘tkazilib kelinmoqda. |
| **V. Ta’lim va kommunikatsiya** | | |
| 14. | Korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha treninglar o‘tkazish:<br><br>barcha xodimlar uchun;<br><br>korrupsiyaviy tavakkallchilikka eng ko‘proq moyillik ehtimoli bo‘lgan vazifalarni bajaruvchi bo‘linmalar uchun. | **Korrupsiya boshqaruvning barcha darajalarida uchraydi:** global, milliy va mahalliy. Barcha turdagi agentlar (jismoniy shaxslar, korxonalar, davlat xizmatchilari va siyosatchilar) korrupsiyaga ixtiyoriy yoki noixtiyoriy ravishda jalb qilinishi mumkin.<br><br>**Korrupsiya turli shakllarga ega:** poraxo‘rlik, tovlamachilik, firibgarlik, mulkni o‘zlashtirish, fitna, hokimiyatni suiiste’mol qilish, xushomadgo‘ylik, sovg‘a, qarindoshlik, homiylik va boshqalar.<br><br>**Korrupsiyaning holatiga turli omillar:** ijtimoiy va madaniy sharoit, institusional va tashkiliy tuzilmalar, siyosiy muhit, shuningdek iqtisodiy va tarkibiy o‘zgarishlar siyosati ham ta’sir qiladi. |
| 15. | Tashkilotga yaqinda ishga olingan xodimlar uchun treninglar o‘tkazish. | |
| 16. | Xodimlarning korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari va bo‘linmada amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi choralardan xabardorligini oshirishga oid boshqa tadbirlar . | Tizim xodimlariga muntazam ravishda korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari hamda korrupsiyaning salbiy oqibatlari haqida tushuntirish ishlari olib borilmoqda. |
| 17. | Korrupsiyaga qarshi kurash uchun ma’sullar tomonidan bajarilgan korrupsiyaga qarshi kurash me’yorlari mavzusida axborot-tarqatma materiallari. | Boshqarma tomonidan Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusi yuzasidan axborot tarqatma materiallar va bukletlar tayyorlangan bo‘lib tadbirkorlik subyektlariga hamda korxona va tashkilotlarning vakillariga doimiy ravishda tarqatilib kelinmoqda. |
| 18. | Xodimlarnining odob-axloq madaniyatini shakllantirish, ularni korrupsiyaga qarshi kurash tizimi va korrupsiyaga qarshi qonunchilikning talablari haqida xabardor qilishning boshqa usullari. | Boshqarmada axborot plakatlari va boshqa materiallar mavjudligi hamda xodimlarning odob-axloq madaniyati korrupsiyaga qarshi kurash tizimi va korrupsiyaga qarshi qonunchilik talablari haqida xabardor qilingan. |
| 19. | Fuqarolik jamiyati va bo‘linma kontragentlari uchun korrupsiyaga qarshi tadbirlarni o‘tkazish. | 9- dekabr - Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurash kunini nishonlashning sababi Xalqaro kunlar keng jamoatchilikni muammolardan xabardor qilib borish, global muammolarni hal qilish maqsadida siyosiy kuch va vositalarni safarbar qilish, shuningdek insoniyat yutuqlarini namoyish qilish hamda ularni ulug‘lash uchun kerak. Bugungi kunda jamiyatni tashvishga solayotgan eng |

| | | |
|---|---|---|
| | | global muammolardan biri – korrupsiya balosidir. Mamlaktimizda ushbu illatga qarshi kurashish masalasiga umumdavlat miqyosidagi vazifa sifatida qaralib, uning oldini olish yuzasidan izchil va muntazam ishlar olib borilmoqda. Jumladan, korrupsiyaning shakllari turlicha, ammo korrupsiya oqibatlari har qanday mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga, mamlakat aholisiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashda jamiyatda korrupsiyaga qarshi huquqiy ongni shakllantirishga alohida e’tibor qaratish ya’ni korrupsiyaning har qanday ko‘rinishlariga qarshi insonning o‘zida ichki rad etishni shakllantirmoq kerak. Korrupsiya jamiyat, davlat hokimiyati organlarining manfaatlariga qarshi qaratilgan noqonuniy faoliyatning maxsus ko‘rinishi ekanligini tushunish muhimdir; u mansabdor shaxs va fuqaro (mijoz)ning o‘zaro kelishuvga erishib til biriktirishidir. Undan olinadigan moddiy va nomoddiy imtiyozlar noqonuniy bo‘lib, ularning atrofida axloqsiz ijtimoiy muhit yuzaga keladi. |
| **VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakalar va qoidabuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar. Ta’sir choralari** | | |
| 20. | Xatti-xarakatlar, shu jumladan, potensial xatti-xarakatlar uchun aloqa kanallariga kelib tushgan xabarlar soni. | Yo‘q |
| 21. | Xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan;<br><br>Korrupsiyaga qarshi qonunchilik buzilganligi to‘g‘risida tasdiqlangan holatlar (shu jumladan, me’yoriy-huquqiy hujjatlar va maqolalar kesimida) aniqlangan;<br><br>Bo‘linmada belgilangan korrupsiyaga qarshi nazorat va tartib-taomillarning buzilish holatlari aniqlangan (shu jumladan, ichki hujjatlar kesimida);<br><br>Aybdorlar aniqlangan holatlar soni. | Yo‘q |
| 22. | Qabul qilingan ta’sir choralari. | Samarqand viloyati statistika boshqarmasi tizim xodimlari tomonidan korrupsiya bilan bog‘liq holatlar sodir qilingan taqdirda ular bilan tuzilgan mehnat shartnomasi qonunchilikka muvofiq bekor qilinishi haqida ogohlantirilgan. |
| **VII. Monitoring va nazorat** | | |
| 23. | Hisobot davrida mavjud korrupsiyaga qarshi kurashish talablar, nazorat tadbirlari va tartib-taomillar bajarilishi ustidan tekshiruvlar o‘tkazilganligi. | Yo‘q |
| 24. | Bo‘linmada belgilangan nazorat tadbirlari va tartib-taomillar buzilish holatlari aniqlanganmi va ularga nisbatan qo‘llanilgan ta’sir choralari. | Yo‘q |